

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.Jo'rayeva	
Firoqiy va Partav	314
Z.Teshabojeva	
Abduqayum yo'ldoshning obraz yaratish mahorati	318
N.J.Abdusamatova	
Katta va tayyorlov guruh bolalari nutqini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuv orqali maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini ta'minlash	322
Sh.A.Ermatova	
Erkin Vohidovning "Nido" dostonini o'qitishda "Blum taksonomiyasi" dan foydalanish	326
M.J.Jurabojeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qo'shiqlarni tinglash va tahlil etishga o'rgatishning o'ziga xosligi	331
Sh.M.Usanov	
O'zbekistonda millatlararo hamjihatlik va totuvlikning ta'minlanishida milliy madaniy markazlarning o'rni.....	334
V.A.Giyosova	
Glyuttonimlar bilan ifodalangan bolalarga oid murojaat birliklari	339
Г.Р.Абдуллаев	
Социокультурные и этнические особенности в развитии молодёжи в узбекских семьях под влиянием опыта пожилых.....	342
J.Sh.Amayusupov	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish bosqichlari.....	345
M.T.Voxidova	
Abu Nasr Forobiy asarlarida insonparvarlik masalalari	350
N.M.Xodjibolayeva	
Jadid mutafakkirlarining qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari	354
Sh.M.Muxamedov	
Materialshunoslik fanining elektron-dasturiy va metodik ta'minotini takomillashtirish.....	358
S.I.Raxmatullayeva	
Farg'ona viloyati axborot kutubxona markazi faoliyati tarixi	371
M.A.Junaydullayev	
Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi tarixiy shart-sharoitlari	377
M.M.Temirova	
Ichki ishlar profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda asosiy vazifalari va funksiyalari	382
M.U.Kurbanov	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagogik jamoasini maqsadli boshqarishda ergonomik yondashuv	387
M.O.Batirkhanova	
Badiiy asarlardagi somatik frazeologik birliklar tarjimasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	391
M.C.Ганиева	
Особенности социально-философских взглядов по развитию женского предпринимательства.....	395
I.A.Ismoilov	
Jazo tushunchasi va uning mazmun-mohiyati xususida	401
D.G'.Zaylobidinova	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning metodik tizmi	405
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga doir	408
M.M.Yunusov	
Universitetlarda "Kimyoviy texnologiya" fanini fanlararo bog'lanish asosida o'qitishning pedagogik-psixologik jihatlari	416
G'.M.Alamov	
Sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishda xalq o'yinlarining o'rni.....	420

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MILLIY QO'SHIQLARNI TINGLASH VA
TAHLIL ETISHGA O'RGATISHNING O'ZIGA XOSLIGI****ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ СЛУШАНИЮ И
АНАЛИЗУ НАЦИОНАЛЬНЫХ ПЕСНЕЙ****THE CHARACTERISTICS OF TEACHING PRIMARY CLASS STUDENTS TO LISTEN
AND ANALYZE NATIONAL SONGS****Juraboyeva Mushtariy Jamoldin qizi¹**¹Namangan davlat universiteti, erkin tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qo'shiqlarni tinglashga o'rgatishning o'ziga xoligi, musiqa darslariga qo'yilgan talablar, sharq mutafakkirlarining musiqiy ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarining bugungi kundagi ahamiyati xususida so'z yuritiladi.

Аннотация

В данной статье говорится об особенностях обучения учащихся начальной школы прослушиванию национальных песен, требованиях к урокам музыки, а также значении взглядов восточных мыслителей на музыкальное образование сегодня.

Abstract

This article talks about the peculiarity of teaching elementary school students to listen to national songs, the requirements for music lessons, and the importance of Eastern thinkers' views on musical education today.

Kalit so'zlar: musiqa ta'limi, milliy qo'shiqlar, cholg'u asboblari, dars, metod, vosita, o'quvchi.

Ключевые слова: музыкальное образование, народные песни, музыкальные инструменты, урок, метод, инструмент, чтец.

Key words: music education, folk songs, musical instruments, lesson, method, tool, reader.

KIRISH

Respublikamizda aholining madaniy saviyasini oshirish, yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash, ta'lim tashkilotlarini milliy cholg'u asboblari, notalar to'plamlari va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlashga katta ahamiyat qaratilmoqda. "Ta'lim muassasalarida o'quvchi va o'quvchilarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash"[1] madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Bu esa, o'quvchilarda milliy musiqa asarlarini tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik, metodik xususiyatlarini aniqlashtirish, axborot texnologiyalari vositasida milliy musiqa tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo qiladi.

Xususan, "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 28-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan imzolangan PQ-4038-son qarori[2], O'zbekiston ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash «Ilhom» jamoat fondi[3], O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi[4], O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi[5], O'zbekiston davlat filarmoniyasi[6], O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali tashkil etildi[7].

USULLAR

Tadqiqotda tahlil, pedagogik kuzatuv, suhbat, modellashtirish, loyihalashtirish, tashxis, pedagogik tajriba-sinov, ma'lumotlarni mujassamlashtirish, taqqoslash, solishtirish, ekspert baholash, umumlantirish va statistik ishlov berish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Insonning shaxs sifatida shakllanishida musiqa san'atining beqiyos ahamiyatini, uning ilohiyligini, ruhiyat bilan bog'liqligini o'tmish allomalari doimo ta'kidlab kelganlar. O'zbek she'riyatining dahosi Alisher Navoiy o'z nasriy asarlarining birida bu haqda ajoyib fikrlarni bildiradi: «Shodlikni oshiruvchi xonanda, g'amni tarqatuvchi sozanda, bularning har ikkisiga hissiyotli kishilar va ahli dardlar jon fido qilirlar. Ular muloyim tarona bilan kuylar ekanlar, eshituvchilarning naqd

hayoti kuyga fido bo'lsa ne ajab? Axir, ko'ngil xush ohangdan quvvat, ruh esa xush ovozdanda oziq oladi». O'rta Osiyo xalqlari tarixi bo'yicha musiqa va adabiyotning bir-biridan ajralmaganligi yaxshi ko'rsatilishi mumkin. Bu esa O'rta Osiyo xalqlarining musiqa va adabiyotida eng asosiy xususiyatlaridan biridir. Bu milliy va mumtoz musiqa tinglash ko'nikmalari qadim davrlardan rivoj topganligini ko'rsatadi[8]. Jumladan, Shiroq, Rustam, Siyovush kabi afsona va qo'shiqlarni bunga misol qilib keltirish mumkin. Shuningdek, "Avesto", asosan zardushtiylik dinining maqol va duolarini o'z ichiga oladi, shuningdek, jadid va asosiy tarixshunoslikning ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

Sharq va G'arb musiqa tarixini o'rganishda o'ziga xos kitoblar, maqolalar va tadqiqotlari mavjud. Musiqa tarixi va madaniyatiga oid ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Milliy kutubxonasi, O'zbekiston davlat san'at muzeyi va O'zbekistonning boshqa ilmiy markazlarida topish mumkin. Birgina "Avesto" misolida ko'rib o'tadigan bo'lsak, uning mazmun-mohiyatida yakkaxudolik, insonparvarlik, mehr-shafqat, mehnatsevarlik, yurtparvarlik g'oyalari tarannum etilgan bo'lib, yosh avlodning ma'naviyatini tarbiyalashda, yaratuvchanlik va bunyodkorligini shakllantirishda xizmat qiluvchi eng muhim manbalardan biri. Ajdodlarimiz ana shunday ezgulikka yo'g'rilgan, singdirilgan eng oliy tuyg'ularni musiqa orqali tinglashga katta e'tibor berganliklarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, "Zaratushtra (Zardusht) bola tug'ilgan zahoti she'riy duolarni to'rt-marta to'xtab-to'xtab, har gal ovozini balandroq ko'tarib o'qigan"[9]. Bunda shunisi diqqatga sazovorki, musiqiy tinglashda "Avesto"ning o'zi ham, uning sharhlari (Zend) ham milodning VI asrigacha to'laligicha og'zaki saqlanib kelingan. Jumladan, "Avesto" ning "Gotlari" musiqa jo'rligida ijro etilib, duolar o'z vaqtida lozim mutanosiblik (garmoniya) bilan va muayyan pardalarda (registr), ovozlarning zarur ohanglari va pardalarni to'la saqlagan holda kuylanishi talab qilingan"[10]. Shu holda avloddan-avlodga og'zaki o'tib kelgan. Ularning muayyan ovoz ohanglariga ega ekanligi, ya'ni "qo'shiqonaligi" ko'p asrlar jarayonida og'zaki saqlanib qolishiga o'ziga xos kafolat bo'lib xizmat qildi[11] va bu ohanglar asrlar osha yashab keldi".

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Musiqa yosh avlodning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur, vatanparvarlik, nafosat va ijodkorlik tarbiyasini amalga oshirishga, dunyoqarashini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni o'stirishga xizmat qiladi. Musiqaning juda katta tarbiyaviy imkoniyatlari o'qituvchining jiddiy kasbiy tayyorgarligi, o'quvchi shaxsiga hamda uning musiqiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan doimiy e'tibori asosidagina yuzaga chiqadi. Shu bilan bir qatorda musiqa o'qitishning samarasini belgilovchi muhim omillardan biri musiqiy metodik masalalarning nazariy jihatdan ishlab chiqilganligi va uning amaliyot bilan bog'liqligi darajasidir.

Mutaxassislar musiqiy eshituv, ritm hissi, musiqiy xotirani musiqiy qobiliyatlarning asosiy ko'rinishlari deb belgilaydilar.

Musiqiy eshituv qobiliyati – bu tovushning baland-pastligi, kuchi, tembri va davomiyligini his etishdir.

Boshlang'ich sinflarda kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi, ritmik xarakterlar, bolalar cholg'ularida ijro, ijodkorlik kabi faoliyatlar qo'llanilsa, o'rta sinflarda dars asosan to'rta faoliyat: tinglash, kuylash va musiqa savodi va musiqa ijodkorligi asosida olib boriladi.

Musiqa dasturi maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab bilan uzviylik hosil qiladi. Boshlang'ich sinflar dasturi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlari tarkibiy tuzilishini saqlab qolgan: 6-7 yoshli MTT bolalari musiqa tinglaydilar, qo'shiq o'rganadilar, raqslar va o'yinlar bajaradilar, murakkab bo'lmagan musiqiy parchalarni bolalarni cholg'ularida ijro etadilar. Musiqiy faoliyatlarining bunday turliligi bolalar musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish omilidir. Bir musiqa asarini idrok etish (tinglash) qo'shiq, ritmik harakatlarni o'rganish uchun bir necha darslar talab etiladiki, bir darsning o'zida ham yangi asar bilan tanishuv, ham oldingi darsda o'rganilgan qo'shiq, asar ustida ish olib borishni davom ettirish sodir bo'ladi. Masalan, 1-sinf o'quvchilari darsda I.Akbarovning «Onajonlar» qo'shig'ini ijro etadilar, N.Norxo'jayevning «Kakligim» qo'shig'ini o'rganishni davom ettiradilar, oldingi darsdan tanish bo'lgan «Alla» kuyini (I.Akbarov) tinglaydilar, «topishmoq» musiqiy didaktik o'yinida ishtirok etadilar va notalar cho'zimini o'rganadilar. Dars mazmuniga xarakteri, kayfiyati, turlicha bo'lgan asarlar kiradi, shuning uchun darsning mantiqan yaxlitligiga erishishda darsning tuzilishini, ya'ni faoliyat turlarining ketma-ketligi, darsda «hissiy sozni» ushlab turish maqsadida bir asardan ikkinchisiga o'tish yo'llarini topish, aniqlash muhimdir.

Dars tuzilishini rejalashtirishda o'quvchilarning jismoniy, emotsional, aqliy holatlarini hisobga olish lozim. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqatlari turg'un bo'lmasligi sababli, faoliyat turlarini almashtirib turish, darsga qiziqishni orttiradi; murakkab qo'shiq, asarni o'rganishda bir dars davomida hadeb qaytarishdan ko'ra, bir necha dars davomida o'rganish maqsadga muvofiq; qiyin musiqiy ritmik harakatlarni bajarishdan so'ng to'g'ridan-to'g'ri qo'shiq kuylashga o'tish yaxshi emas, chunki kuylash uchun sokin nafas va diqqatni jamlash talab etiladi va hk.

Rejalashtirishda darsning maqsadi, vazifalari, mazmuni (musiqiy repertuari) va tuzilishi (faoliyat turlarining ketma-ketligi), vositalari, ta'lim metodlari va texnologiyalari aniqlanadi.

Zamonaviy musiqa darsini maxsus jihozlarsiz tasavvur etish qiyin. Musiqa xonasining estetik bezatilishi turlicha bo'lishi mumkin, ammo u san'at darsi muhitini yuzaga keltirishi lozim.

Darsga turli cholg'ular, audio va video texnikalari, bolalar cholg'ulari, kompozitorlar portretlari, fonoxrestomatiyalar, rangtasvir asarlari reproduksiylari nota jadvallari talab etiladi. Bu vositalar o'quvchilarga turli musiqiy asarlarni bir necha ijroda ko'rsatish, ularning musiqa cholg'ulari tembr xususiyatlarini o'rganishlarida, musiqa asarlarini to'laqonli idrok etishlarida, ularda ijrochilik va ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirishda (o'quvchilar ijrosi va musiqiy ijodkorlik elementlarini magnitofonga yozish va eshittirish), katta imkoniyat hosil qiladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki darslarga tayyorgarlik ko'rish o'qituvchining bilimi, mahoratiga bog'liq bo'lib, musiqiy materialning tarbiyaviy ta'limiy va rivojlantiruvchi taraflari hamda ularni amalga oshirish yo'llari, imkoniyatlari, metodlarini aniqlashda o'z ifodasini topadi.

Har bir musiqiy asarni chuqur o'rganish, bolalar yosh xususiyatlari, ularning musiqiy tayyorgarligini hisobga olgan holda asar tanlash musiqiy ta'lim-tarbiyani muvaffaqiyatini belgilaydi.

Shunday qilib, darsga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish musiqa o'qituvchisidan ijodiy yondoshuv, kasbiy bilim, tajriba va mahorat talab etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 fevraldagi PQ-112-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 03.02.2022, 07/22/112/0099-son qarori //http.Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.uz
2. "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". PQ-4038-son. 28.11.2018.
3. O'zbekiston ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash «Ilhom» jamoat fondini tashkil etish to'g'risida. PQ-3184-son. 09.08.2017.
4. "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi VM 886-son qarori 01.11.2017.
5. O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish. PQ-3212-son. 15.08.2017.
6. O'zbekiston davlat filarmoniyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. PQ-3813-son. 27.06.2018
7. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining farg'ona mintaqaviy filialini tashkil etish to'g'risida. PQ-3218-son. 18.08.2017.
8. Novashina M.S. (2018). Pedagogicheskie aspekty psixofiziologicheskogo vozdeystviya russkogo pesennogo folkloru i rok-muzyki na lichnost' studentov-muzykantov. Kultura i obrazovanie: nauchno-informatsionnyy jurnal vuzov kul'tury i iskusstv, (1 (28)), 101-107. <http://elibrary.ru/item.asp>
9. Mahmudov T. Avesto haqida. –Toshkent: Sharq, 2001 – 41 b.
10. Qodirov M. Din. Avesto ijrochilik. –Toshkent: Nafosat, 1993 № 3–4. – 15 b.
11. Nizomov A. Sufizm v kontekste muzikalnoy kulturi narodov TSentralnoy Azii. – Dushanbe, 2000 – 36
12. Xo'jayeva M. Umumta'lim maktablarida musiqa o'qitish metodikasi. 2-nashr.O'quv qo'llanma. T.:2008-yil.